

O. ABDULLAYEV, A. REJABOYEV,  
S. MIRZAXO'JAYEV

# ONA-VATAN FIDOYILARI



**ORTIQBOY ABDULLAYEV,  
SAIDAHMAD MIRZAXO‘JAYEV,  
AKMAL REJABOYEV**

# **ONA-VATAN FIDOYILARI**

**Tarixiy-badiiy lavhalar**

**Ikkinchi nashri**

**Toshkent  
«Tafakkur qanoti»  
2015**

**67.400.6**  
**A92**  
**BBK: 84 (50°)**

Mas'ul muharrir

*N. Karimov, filologiya fanlari doktori, professor*

Taqrizchilar:

*tarix fanlari doktori, professor Q. Usmonov,*  
*filologiya fanlari doktori, professor N. Rahimjonov,*  
*tarix fanlari nomzodi, dotsent S. Orifxo'jayev*

Qadimiy va navqiron Turon (Turkiston) tuprog'ida mustaqil O'zbekiston davlatining paydo bo'lishi buyuk tarixiy hodisadir. Xalqimiz o'z erki va ozodligini saqlab qolish uchun asrlar bo'yi mardona kurash olib borgani ma'lum. Xalqimizning ne-ne o'g'lonlari Vatan ozodligi, Tustaqillik, Istiqlol yo'lida aziz jonlarini fido qildilar. Ona diyor kamoloti yo'lida kurashgan buyuk qahramonlarni e'zozlash, xotirasini abadiylashtirish muqaddas burchimizdir. Ushbu to'plam ana shu ezgu niyat zamirida yuzaga keldi. Unda Turon zaminida voyaga yetgan buyuk vatandoshlarimizning hayoti, erk, ozodlik yo'lidagi kurash sahifalari, tariximizdagi qadimgi suronli voqealar qiziqarli tarzda hikoya qilinadi.

Kitob maktab va litsey, kollejlar o'quvchilari, talabalar, o'qituvchilar, ota-onalar hamda keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

---

*Yurtimizga mard va fidoyi farzandlar kerak*  
*Islom Karimov*

## **VATAN QAHRAMONLARI**

O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishgach, bayrog‘imiz muqaddas hududimiz — ona-Vatanimizdagina emas, jahondagi barcha mamlakatlarda hilpirab turibdi. Har yili 1-sentabr kunini Mustaqillik bayrami sifatida nishonlash qutlug‘ an‘anaga aylanib qoldi.

Ona-Vatan. Mustaqillik. Istiqlol. Bu so‘zlar zamirida teran ma’nolar bor. Bizning qadim ajdodlarimiz —Turon farzandlari ming-ming yillardan beri o‘z ona yurtini, o‘z diyorini tabarruk saqlab kelgan. Ular uchun avlodlar xotirasini e‘zozlash, o‘z xalqi udumlarini, an‘analarini asrab-avaylash, nomus-orini yuksak saqlash muqaddas burch sanalgan. Ajdodlarimiz boshidan ne-ne suronlar, fojialar, talon-tarojlar kechmadi. Ammo xalqimiz o‘z dahosi bilan insoniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk allomalarni, donishmandlarni, sarkardalarni yetishtirdi, bebaho ma’naviy qadriyatlarni yaratdi. Eng qadim zamonlardan boshlab o‘lkamizga tashqaridan yaxshi niyat, pok ko‘ngil bilan kelgan kishilar, kim bo‘lishidan qat’i nazar, har bir shahar va qishloqda, har bir jamoada, go‘shada izzat-ikrom bilan kutib olindi.

Ha, xalqimizdagi bag‘rikenglik, mehmondo‘stlik kabi go‘zal urf-odatlarining ildizlari juda uzoq davrlarga borib taqaladi. Shu bilan birga qadim ajdodlarimiz yurtimizga yovuz niyat bilan bostirib kelgan, xalqimizni qul qilib, gullab-yashnagan zamini-mizni oyoqosti qilmoqchi bo‘lganlarga ham munosib javob bergan.

Diyorimizga qilich ko‘tarib kelganlarning barchasi asrlar to‘zoni ostida qolib ketdi. Asrlar davomida aql-u zakovati ila bunyod etgan boy ma‘naviy merosi tufayli xalqimiz mag‘rur yashadi, mehnat qildi, doimo hurriyat va erk sari intildi. Ne-ne jafolarni boshidan kechirgan ona xalqimiz Mustaqillik kunlariga — millatning qaytadan uyg‘onadigan aziz daqiqalariga eson-omon yetib keldi. Bu og‘ir, jafolarga to‘la yo‘lni bosib o‘tish oson bo‘lmadi. Erk yo‘lida ko‘plab qonlar to‘kildi, ne-ne buyuk insonlar Vatan ozodligi yo‘lida aziz jonlarini fido qildilar. Ana shu milliy ong, milliy g‘urur bugungi Istiqlolimizning oltin poydevoridir.

Mustaqillik mevalari — kelajakning egalari bo‘lgan bugungi baxtiyor farzandlarimiz sog‘lom, tinch, farovon hayot kechirishlari kerak.

Ular ona-Vatanimizning barcha fidoyi qahramonlari nomini yaxshi bilishlari, ular bilan hamisha faxrlanishlari lozim. Vatanni sevish, asrab-avaylash, uning ravnaqi yo‘lida sabot bilan mehnat qilishni, fidoyilikni ulardan o‘rganishlari kerak.

Qo‘lingizdagi kitob ana shu ezgu niyat yo‘lidagi dastlabki qadamdir.



## MASSAGETLAR MALIKASI TO'MARIS

Biz yashayotgan bugungi mustaqil O'zbekiston hududi qadim zamonlardan beri boy, farovon o'lka sifatida dong taratgan. Bu yerda dehqonchilik yuksak darajada rivojlangan. Kanallar, katta-katta ariqlar qazilib, sersuv daryolardan suv chiqarilgan. Buni shu kunlarda ham Toshkent shahri aholisini suv bilan ta'minlab turgan Bo'zsuv kanali misolida ko'rishimiz mumkin. Mazkur qadimiy kanal, o'z navbatida, Qorasuv, Salor, Kaykovus, Zax (Zol) ariq va boshqa o'nlab tarmoqlarga bo'linib ketadi. Qadimda bu kanallarning bo'yida ko'plab charxpalaklar, chig'iriqlar kecha-yu kunduz tinmay ishlab turgan. Ajdodlarimiz bu ulug' suv inshootlarini bunyod etish uchun uzoq yillar mobaynida matonat bilan mehnat qilganlar. Sug'orish madaniyati yuqori darajada taraqqiy etgani tufayli o'lka har doim gullab-yashnagan. Odamlar to'q va farovon hayot kechirib, dehqonchilikdan tashqari chorvachilik bilan shug'ullanganlar, hunarmandchilik qilganlar, ajoyib binolar, imoratlar qurganlar. O'zga ellardan bu diyorga kelgan sayyohlar jannatmisol bog'larni, chiroyli uylarni ko'rib hayratga tushganlar. Qadimda o'lkamiz «Ming shahar mamlakati» deb ham nomlangan.



Bu gullab-yashnagan o'lkani zabt etish uchun qadimda xitoylar ham, forslar ham ko'p marta urinib ko'rganlar. Ammo har gal qattiq zarbaga uchrab, mag'lub bo'lganlar.

Ana shunday ilk bosqinlardan biri eramizdan avvalgi VI asrda — 529-yilda Erondagi axamoniylar shohi Kir tomonidan uyushtirilgan.

Kaspiy dengizining Sharqiy qirg'og'ida joylashgan keng tekisliklar massagetlarning yerlari bo'lgan.

Massagetlar ham otliq, ham piyoda jang qilganlar. Yoy, nayza va dastasi uzun oyboltalar bilan qurollanganlar. Ular oltin va misni ko'p ishlatganlar. Misdan yasalgan nayza, yoy va oyboltalari, belga bog'lab yuradigan kamar va tasmalari oltin bilan bezatilgan. Hatto otlarga misdan sovut yopib, yugan va so'liqlariga bezaklar taqishgan, temir va kumushni ishlatmaganlar. Massagetlar quyoshga sig'inganlar, eng chopqir otlarni unga qurbonlikka keltirganlar.

Massagetlar shohi vafot etgach, taxtga uning xotini To'maris o'tiradi va yurtni adolat bilan boshqara boshlaydi. U elning tinchligini ko'z qorachig'iday himoya qiladi. Biroq axamoniylar podshohi Kir massagetlar osoyishtaligiga xavf soladi. U To'marisga uylanmoqchi bo'lib, elchilar yuboradi. Uning maqsadi shu yo'l bilan massagetlarni o'ziga qaram qilish edi. To'maris zolim podshoning shum niyatini sezib, uning taklifini rad etadi. G'azablangan Kir kuch va zo'rvonlik bilan mamlakatni o'ziga bo'ysundirmoqchi bo'ladi. U urush boshlashga qaror qiladi va Amudaryo ustiga ko'prik qurishni buyuradi. To'maris mardona mudofaa jangiga shaylanadi. U o'z dushmani huzuriga elchi yuborib, uni ochiq jangga da'vat etadi: «...biz bilamizki, sen tinchlikni xohlamaysan, shu sababli basharti maslahatimizga ko'nmay, massagetlar bilan to'qnashishni istasang, ko'prik yasayman, deb ovora bo'lib o'tirma. Bizga aytsang, senga xalaqit bermay, daryodan uch kunlik nariga ko'chib ketamiz, bemalol daryoni kechib o'tasan, so'ng yuzmayuz urushamiz. Bordi-yu agar biz bilan daryoning sen turgan qirg'og'ida uchrashmoqchi bo'lsang, uni ham ayt, biz rozi, faqat nomardlik qilma», deydi. Kir saroyda kengash chaqirib, dastlab To'maris qo'shinini o'z tomoniga o'tkazish fikrini aytadi. Uning maslahatchilaridan bo'lgan Krez bu taklifga

qarshi chiqadi: «O‘z tomonimizda dushmandan yengilsak, sharmanda bo‘lamiz, ular g‘olib sifatida ham yurtga egalik qiladilar, ham butun boyliklarimizni talab ketadilar. Bunga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi», deydi u. Krez daryoning narigi qirg‘o-g‘iga o‘tishni va ma‘lum masofa bosib o‘tilgandan so‘ng shohona ziyofat — turli-tuman noz-u ne‘matlar va behisob ichimliklar bilan bir qatorda oz sonli askarlarni qoldirib ketishni taklif etadi. «Umrida bunday noz-u ne‘matlarni ko‘rmagan sahroyi massagetlar ziyofatga muk tushib, darhol mast bo‘lib uxlab qoladi. Shundan keyin hujum qilib, ularni osonlik bilan yengamiz», deydi u.

Bu nopok reja Kirga ma‘qul bo‘ladi. U To‘marisning o‘g‘li Sparangis boshliq bir guruh massagetlarni ana shunday hiylanayrang bilan mast qilib asir oladi. Ehtiyotsizlik tufayli tutqun bo‘lib qolgan Sparangis hushi joyiga kelgach, ahvolni ko‘rib, raqibidan qo‘lini bo‘shatishlarini so‘raydi. Arqon yechilishi bilan u xanjarini ko‘ksiga sanchib, o‘zini o‘ldiradi. Bu dahshatli fojidan xabar topgan To‘maris qayg‘udan darg‘azab bo‘lib, Kir huzuriga yana chopar yuboradi. «...O, qonxo‘r Kir, — deydi u o‘z maktubida. — Qilgan ishing bilan maqtanmay qo‘yaqol! Sen o‘g‘limni yuzma-yuz jangda yengganing yo‘q, uni makkorlik bilan, sharob ichirib qo‘lga tushirding. Mening maslahatimga kir, o‘g‘limni menga topshir, kelgan yeringga qaytib ket. Agar so‘zimga kirmasang, tangrim Quyosh nomi bilan qasamyod qilamanki, senday ochko‘z yuhoni o‘z qoningga to‘ydiraman!» Kir bu so‘zlarga amal qilmaydi. Qonli urush davom etadi. To‘maris boshliq massagetlar ayovsiz jangda Kir qo‘shinini yengib, uning o‘zini o‘ldiradilar. To‘marisning amri bilan bir meshga qon to‘ldirilib, uning ichiga Kirning tanasidan judo qilingan boshi tashlanadi. «Ey nomard, sen meni — jangda halollik bilan yengib chiqqan bir ayolni makkorlik bilan o‘g‘lidan judo qilib, farzand dog‘ida kuydirding. Sen umring bo‘yi qonga to‘ymading. Men ahdimga amal qilib seni qon bilan sug‘ordim. Endi to‘yguningcha ich! Birovning yurtiga zo‘ravonlik bilan bostirib kirganlarning jazosi shu!» — deb xitob qiladi.



Massagetlar mana shunday qattiq jang-u jadallar bilan muqaddas ona tuproqni daxlsiz saqlab kelganlar. Ular yovga aslo taslim bo'lmaganlar. Massagetlar malikasi To'marisning jasorati asrlar osha xalq dilida, tilida yashab keladi. Mashhur baxshi-shoir Ergash Jumanbulbul o'g'li ijro etgan «Oysuluv» dostonida tasvirlangan voqealar To'maris jasoratiga aynan mos keladi. Unda ham qadimgi Turon va Eron o'rtasidagi muvazoz kurashlar, shahzoda Kunbotirning Kir (Kayxisrav) tomonidan hiyla-nayrang bilan asir olinishi, Oysuluvning raqibiga mardona murojaati, ayovsiz jang va qonxo'r Kayxisrav boshini qonli meshga solinishi kabi lavhalar mahorat bilan gavdalanti-rilgan.

To'maris obrazi juda ko'p she'rlar, dostonlarda kuylangan. Qoraqalpoq shoiri Ibrohim Yusupov «To'maris» nomli yirik doston yozgan.





Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi  
<https://kitobxon.com/oz/asar/779> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси  
<https://kitobxon.com/uz/asar/779> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно  
найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/779>